

IKKI BUYUK YOZUVCHINING IJODIY YAQINLIGI

Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

O‘zbek adabiyoti 10.00.02 ixtisosligi bo‘yicha Tayanch doktoranti

E-mail :ismonovayorqinoy@gmail.com

Tel: +998936773889

Annotatsiya: ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Oq kema” va O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlaridagi obrazlarning o‘xshash tomonlari, xarakter va xusussiyatlaridagi bir hillik, yozuvchilarining ijodiy yondoshuvidan yaqinlik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijodiy yondoshuv, xususiyat, yozuvchi, tasvir, obraz, xarakter, voqealar rivoji

Ikki ijodkorni bir-biriga yaqinlashtiradigan holat bu – yozuvchilarining hayotga, tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabatlari va hayotni tasvir etishlarining o‘ziga xosligidir. Vaholanki, ularni bir-biridan farqlovchi jihat ham aynan asarga ijodiy yondoshuvining turlicha ekanlidigadir. Zero, buyuk yunon dramaturgi Sofokl zamondoshi Evripid ijodidan o‘z ijodining farqini bunday deb izohlagan: “Men odamlarni qanday bo‘lishi lozim bo‘lsa, shunday tasvir etaman, u esa odamlarni aslida qanday bo‘lsalar shunday tasvir etadi”.

XIX asrda V.G.Bellinskiy yozuvchilarini ularning ijodiy xususiyatlariga ko‘ra ikki katta guruhgaga bo‘lgan edi. Uning fikricha, bir xil yozuvchilar hayotni qanday bo‘lsa shunday tasvirlaydilar, ikkinchi xil yozuvchilar esa hayot, mualliflarning orzusiga ko‘ra, qanaqa bo‘lishi lozim bo‘lsa, shunday tasvirlaydilar.

O‘z asarlarida hayotni real tasvirlar bilan boyitgan, asar qahramonlarini aslida qanday bo‘lsa, shunday tasvirlashga urungan buyuk yozuvchilardan Chingiz Aytmatov va O‘tkir Hoshimovning ijodiy yaqinligini asarlarini o‘qib anglastingiz qiyin emas. Vaholanki, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi, O‘tkir Hoshimovning esa “Ikki eshik orasi” romanlari gapimiz isbotidir. Chunki har ikki asarda voqealar rivoji reallikka yaqin bo‘lib, undagi insonlar xarakteri, ba’zan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

taqdiri, qahramonlarning o‘xshashligi va ayniqsa, ikki asarda ham bola obraziga alohida yondoshilganini ko‘rishimiz mumkin.

Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida tog‘ yonbag‘rida yashovchi kichik bir ovul odamlarining achchiq hayoti va ayanchli qismati hikoya qilingan. Unda hozirgi vaqtida ham uchrab turadigan bir qancha muammolar: oila notinchligi, farzandsizlik, ekologik muammolar badiiy usulda yoritilgan. Og‘ir turmush tarzi, insonlarda yo‘qolib borayotgan insoniylik, mehr-shavqat, oqibat, ezgulik kabi omillar yuqori planlarda aks ettirilgan. Tabiatga ziyon yetkizish, inson qadr-qimmatini poymol qilish, ichkilik, oiladagi zo‘ravonlik, farzandsizlik kabi holatlar ham yetakchi o‘rinlarda ko‘rsatilgan. Umuman olganda, asarda hayotda uchrab turuvchi voqeа-hodisalar juda chiroyli tarzda ko‘rsatib berilgan. Unda Mo‘min chol, cholning kampiri O‘razqul, Bekey, Seydahmad, Guljamol va uning kichik qizchasi, Qulibek va cholning yetti yashar nabirasi kabi qahramonlar ishtirok etgan bo‘lib, ular turli xarakterdagi va turli orzu umidlardagi insonlardir.

“Ikki eshik orasi” romani esa Muzaffar, “Qora amma”, Robiya, Ra’no, Umar zakunchi, Kimsan, Munavvar, Olimjon kabi har xil xarakter va toifadagi obrazlar tilidan hikoyalar tarzida berilgan. Asarda Kichkintoy Muzaffar hikoyasi va bolakay ulg‘aygach, Muzaffar Shomurodov hikoyasiga aylanib borishi, voqealar rivoji hech qanday uzilishlarsiz, aniq va tushunarli qilib tasvirlangani bu yozuvchi mahorati va kuzatuvchanligini ko‘rsatib bergen. Roman voqealari chekka bir qishloqda yashovchi odamlarning urush arafasi, urush yillari va undan keyingi davrdagi azob-u tashvishlarda o‘tgan hayotini hikoya qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, ikki asar ham kichik bir qishloq odamlarining hayotidan, tashvishlaridan, qiyinchiliklaridan so‘zlaydi. Ikki asarda ham ijobiy va salbiy obrazlar bo‘lib, ularni yoritishda ijodkorlar shunday mahorat bilan yondoshganki, ba’zan ular bilan birga yig‘lasangiz, ba’zan qattiq nafratlanasiz. Go‘yoki atrofingizda ro‘y bergen hodisalar bilan taqqoslaysiz. Yozuvchi his etgan tuyg‘ularni qalban his etasiz. Bu ham albatta, yozuvchi mahorati va o‘ziga xos uslubidandir.

“Oq kema” asarning asosiy qahramonlaridan biri Mo‘min cholning tabiatida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qoldirilgan urf-odatlarning qadrlanishi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki har bir xalq o‘zining mavjudligini faqatgina o‘ziga xos urf-odatlar bilan isbotlay oladi. “Ikki eshik orasi” romanida esa Mo‘min chol obraziga yaqin misollar ko‘p. Duma chol, Orif oqsoqol, “Qora amma”, Robiya kabi obrazlarda Mo‘min choldagi kabi insoniylik, oqko‘ngillik, rahmdillik, soddalik, mehribonlik, jonkuyarlik va eng asosiysi, sabrmatonatni yuksak darajada shakllanganini ko‘ramiz. Ayniqsa, “qora amma”ning tashvishlari, qayg‘u-hasratlarini, farzandi uchun kuyib-pishishlarini Mo‘min chol bilan taqqoslasa arziydi. Bunga birgina asarning “Ammam Kimsan akamni tanidi” qismini misol qilsak bo‘ladi.

Shuningdek, har ikki asarda ham xarakteri va dardi bir-biriga yaqin obrazlar juda ko‘p uchraydi: bolali bo‘lish baxti nasib qilmagan Zuhra kelin va Mo‘min cholning kichik qizi Bekey, farzanddek shirin ne’matni tushunib yetmagan, chaqaloq holida tashlab ketib, uni tirik yetim qilgan yokida bunga majbur bo‘lgan Ra’no kelin va Mo‘min cholning katta qizi; mard va jasoratli, ezgulik himoyachisi bo‘lgan Kimsan va Qilibek obrazlari; razil va zo‘ravon, faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan, atrofdagilarga munosabati hamisha sovuqqon bo‘lgan Umar zakunchi va O‘razqul obrazlari hamda go‘dakligidanoq ona mehridan mosuvo bo‘lgan, hayotga o‘z bolalarcha nigohi bilan qaragan, atrofidagi insonlarga doim rahmi kelgan va ham ona ham ota o‘rnida biri bobosini ko‘rsa, biri dadasi va jonajon ammasini bilgan bola obrazlarini olishimiz mumkin.

Asarlarda ayniqsa, bola obrazi juda tasirli va ishonarli chiqgan. Yozuvchilar bola timsolida ezgulikka intilish, dunyoni faqat ezgulik orqali ko‘rish kabi fazilatlarni ko‘rsatib berishgan. Bu ayniqsa, “Oq kema” asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bolaning dunyoqarashi, uning ichki kechinmalari, atrofga-muhitga, tabiatga munosabati shu qadar bolalarcha, ishonarli qilib tasvirlab berilganki, bu ikki adibning kuzatuvchanlik mahoratidan dalolatdir.

“Oq kema” qissasida bola tomonidan toshlarga “egar”, “bo‘ri”, “tank”, “tuya” deya turlichay nomlar berilgan. Bolaning doimiy hamrohlari va suhbatdosh do‘stlari

sifatida ham predmetlardan foydalanilgan. Bular eski durbin va bobosi olib bergen maktab portfeli bo‘lib, bola bu ikki matohni doim o‘zi bilan olib yurgan. Ular bilan sirlashgan, quvongan.

“Ikki eshik orasi”da esa bolakay Muzaffar “Tuya amaki”, “Qora amma”, “Alvastiko‘prik” kabi laqablarni ishlatgan. Vaholanki, har ikki bola o‘z tasavvuricha kimni nimaga va nimani nimaga o‘xshatgan bo‘lsa, o‘shanday nomlab qo‘yaqolgan.

“Oq kema”da “shoxdor ona bug‘i”, “baliq”, “oq kema” kabi ramziy ma’noga ega obrazlar mavjud bo‘lib, “shoxdor ona bug‘i” – hech qachon tamomila yo‘qotib bo‘lmaydigan ezgulik, yaxshilik, ollyjanoblik, mehr-oqibat ramzida kelgan. “Baliq” esa erk va qudrat ma’nosida qo‘llangan. Asar nomiga qo‘yilgan “oq kema” – to‘kislik, mehr-u oqibat, diydor ramzi bo‘lib kelgan.

“Ikki eshik orasi” romanining nomlanishini esa adib “Hayot va O‘lim eshigi orasi” ya’ni har bir inson hayot eshigidan kirib, o‘lim eshigidan chiqib ketishini nazarda tutgan. Garchi, bu ikki eshik orasidagi qisqa umrni qanday o‘tkazish, xoh u mazmunli bo‘lsin xoh bekor va ayanchli bo‘lishi har bir insonning o‘ziga bog‘liqligini, yokida peshonada yozilgan qismat o‘z hukmini ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bu ikki buyuk ijodkor ijodidagi bu kabi o‘xhash jihatlar nafaqat ularning balki, boshqa adiblarning asarlarida ham uchrashi mumkin va bu tabiiyhamdir. Zero, adabiyotga bo‘lgan muhabbat qalblarning yaqinligiga va tuyg‘ularning o‘xhashligiga olib keladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Achilova E. O‘tkir Hoshimov asarlarida badiiypsixologizm muammosi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali, 2021.
2. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. –Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, -2019.
3. Chingiz A ymatov. Tanlangan asarlar 1. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, -Toshkent, -2006.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, -Toshkent: “O‘qituvchi”, -1986.